



FARG'ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2023 - yil 5 - sentabr

93-11-154-F/23

Buvayda tuman hokimligi

Buvayda tuman mahalliy budjetining 2023 yil zaxira mablag'lari hisobidan mablag' ajratish to'g'risida

1. Buvayda tuman hokimligi va Farg'ona viloyat Qo'riqlash boshqarmasi o'rtasida tuzilgan shartnomaga bo'yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni bartaraf etish uchun, tuman mahalliy byudjetining 2023 yil zaxira mablag'lari hisobidan 30,0 (o'ttiz million)mln.so'm mablag' belgilangan tartibda tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Tuman hokimligi bosh hisobchisiga:

ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish va uni belgilangan tartibda maqsadli yo'naltirish;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan xujjatlarni iqtisodiyot va moliya, g'aznachilik bo'limlariga taqdim etilishi vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimligining iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Ergashev)ga ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda ro'yxatga olish, tuman g'aznachilik bo'linmasi (Sh.Soliyev)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish vazifalari yuklansin.

4. Ushbu farmoyishni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinnbosari D.Mirzaxalilov zimmasiga yuklansin

Tuman hokimi



Odiljonovich I. B.